XALQ DEPUTATLARI ELLIKQAL’A TUMANI KENGASHINING
Q A R O R I

2025-yil 30-dekabr VII-18-127-13-194-K/25 Ellikqal’a tumani

Ellikqal’a tumanining 2026-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6 va 24-moddalari, Budjet kodeksining 27 va 99-moddalari, “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi 2025-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-1105-sonli Qonuniga va Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesining 2025-yil 29-dekabr kungi 88/IX-sonli qaroriga muvofiq hamda tuman hokimi birinchi o‘rinbosarining 2025-yil 19-noyabrdagi 02-410-sonli taqdimnomasini inobatga olib, xalq deputatlari Ellikqal’a tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 25-dekabrdagi “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-1105-sonli Qonuni hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesining 2025-yil 29-dekabr kungi 88/IX -sonli qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Mazkur qarorga muvofiq, Ellikqal’a tumani mahalliy budjetining 2026-yilgi daromadlari 129 mlrd. 537 mln. 692 ming so‘m va xarajatlari esa 129 mlrd. 537 mln. 692 ming so‘mga rejalashtirilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin. Tuman mahalliy budjetining shaxsiy g‘azna hisobvarag‘ida turishi lozim bo‘lgan budjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori (aylanma kassa mablag‘lari) 814 mln so‘m etib belgilansin.

3. Tuman mahalliy budjeti daromadlarining 2026-yil uchun asosiy prognoz ko‘rsatkichlari 1-ilovaga muvofiq hamda 2026-yilda tuman mahalliy budjetidan moliyalashtiriladigan budjet tashkilotlariga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari 2-ilovaga muvofiq, shuningdek Tuman mahalliy budjetiga

umumdavlat soliqlari va boshqa soliqsiz tushumlardan ajratmalar meyorlari 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Tuman mahalliy budjeti zaxira jamg‘armasi hajmi 2026-yil uchun 2 mlrd. 102 mln. 167 ming so‘m miqdorida belgilansin. Bunda, zaxira jamg‘armasi mablag‘larini amaldagi budjet qonunchiligiga muvofiq, budjet tizimi budjetlari shakllantirilayotganda oldindan nazarda tutib bo‘lmaydigan xarajatlarni, shuningdek ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik yuzaga kelgan vaziyatlarda amalga oshirilishi zarur bo‘lgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo‘naltirilishi ta’minlansin.

5. Yuridik shaxslarning qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlarining soliq stavkalari to‘g‘risida tuman hududlari kesimida belgilangan soliq stavkalariga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar 4-ilovaga, tuman hududi kesimida jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i bo‘yicha belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar 5-ilovaga, yer usti va yer osti manbalaridan olinadigan suv resurslari uchun belgilangan soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlari 6-ilovaga, noruda qurilish materiallari uchun (sement ishlab chiqarish uchun mo‘ljallangan ohaktoshdan tashqari) belgilangan soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar 7-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

6. Tuman tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari-iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i B.Alimov, tuman soliq inspeksiyasi boshlig‘i N.Abayev bilan birgalikda 2026-yil tuman mahalliy budjeti uchun belgilangan ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarilishini ta’minlash choralarini ko‘rsin.

7. Tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari-iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i B.Alimovga:

shaffoflikni ta’minlash maqsadida, mahalliy budjetdan mablag‘ bilan ta’minlanadigan budjet mablag‘larini taqsimlovchilar har chorak yakuni bilan keyingi chorak birinchi oyining 25-sanasidan kechiktirmay tegishli rasmiy veb-saytlariga o‘z tasarrufidagi budjet tashkilotlari kesimida mablag‘lar taqsimotini, davriy moliyaviy hisobotlarini, kapital qo‘yilmalar hisobidan amalga oshirilayotgan loyihalarning ijrosini, o‘tkazilgan tanlovlar (tenderlar) savdolari va amalga oshirilgan davlat haridlari hamda boshqa tegishli ma’lumotlarning joylashtirilib borilishi yuzasidan majburiyatlar yuklatilganligi ko‘rsatib o‘tilsin;

davlat moliyaviy nazorati organlari tomonidan moliya yili uchun ish rejalarini moliya yilining birinchi oyida hamda nazorat tadbirlari natijalariga ko‘ra aniqlangan moliyaviy qonunbuzilishlar va ijobiy natijalar bo‘yicha ma’lumotlarni har chorakdan keyingi oyning 25-sanasidan kechiktirmay o‘z rasmiy veb-saytlariga joylashtirib borilishi ma’lumot uchun qabul qilinsin;

tuman mahalliy budjetining qo‘shimcha manbalari hisobidan xarid qilingan tovarlar va xizmatlar, qurilish, rekonstruktsiya qilish va ta’mirlash ishlari olib

borilayotgan obyektlar ro‘yxati, shuningdek qurilish-ta’mirlash ishlarining moliyalashtirilishi to‘g‘risidagi ma’lumotlar har chorak yakunlariga ko‘ra, keyingi chorak birinchi oyining 10-sanasiga qadar tuman hokimligi tomonidan majburiy tartibda o‘z rasmiy veb-saytlariga joylashtirsin.

qonunda belgilangan ayrim soliqlar va to‘lovlar stavkalari, soliq solish tartiblari va boshqa ma’lumotlarni ommaviy axborot vositalarida yoritilishini ta’minlasin.

ko‘rsatib o‘tilgan xarajat turlariga to‘g‘ri mablag‘ ajratilganligi va taqsimlanganligiga mablag‘ taqsimlovchilarning javobgarligi oshirilsin.

tuman mahalliy budjetining qo‘shimcha manbalarining 30 foizidan kam bo‘lmagan (ortiq bo‘lishi mumkin) miqdorlarini jamoatchilik fikri asosida belgilangan tadbirlarni moliyalashtirishga yo‘naltirishni, veb-saytlarga ularning natijalarini joylashtirishni ta’minlasin.

8. Tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari-iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i B.Alimov va tuman Soliq inspeksiyasi boshlig‘i N.Abayev budjet daromadlari va xarajatlari ko‘rsatkichlarining bajarilishini ta’minlash, soliq bazasini kengaytirish hamda tumanning iqtisodiy salohiyatini oshirish yuzasidan zarur chora-tadbirlar ko‘rish, budjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanishi ustidan qat’iy nazoratni o‘rnatish choralarini ko‘rsin.

9. Tuman mahalliy budjetidan moliyalashtiriladigan budjet tashkilotlariga ajratilgan mablag‘lardan maqsadli va samarali foydalanish, xususan ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat, dori-darmon, kommunal xizmatlar va davlat dasturlari uchun belgilangan xarajatlarni birinchi navbatda to‘liq rejalashtirilishi va o‘z vaqtida to‘lanishi hamda davriy jamlanma moliyaviy hisobotlarni to‘g‘ri shakllantirilishi va o‘z vaqtida taqdim etilishini ta’minlasin.

10. Ushbu qarorning bajarilishini ta’minlash vazifasi tumani hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari – iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i B.K.Alimov hamda qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiya raisi Sh.Xodjiyevlar zimmalariga yuklatilsin.

11. Tuman hokimligining axborot xizmati rahbari T.Nurimovaga mazkur qarorni tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirish va ommaviy axborot vositalarida e’lon qilish vazifasi yuklansin.

12. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan kuchga kiradi.

Kengash raisi **NIYAZIMBETOV VALIJAN BATIRBAYEVICH**

Xalq deputatlari Ellikqal’a tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-18-127-13-194-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Ellikqal’a tumani mahalliy budjeti daromadlarining 2026-yil uchun asosiy prognoz ko‘rsatkichlari

ming so‘mda

T/R	Daromad turlari	Jami
1	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i	3 055 000
2	Korxonalar aylanmasidan soliq	6 039 000
3	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	46 393 555
4	Mol-mulkni ijaraga berishdan olinadigan yillik daromad to‘g‘risidagi deklaratsiyaga asosan jismoniy shaxslar tomonidan to‘lanadigan daromad solig‘i	876 300
5	Qo‘shilgan qiymat solig‘i	3 919 110
6	Aksiz solig‘i, jami	14 436 500
	shu jumladan:	-
6,1	- benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizatsiyasidan soliq	14 436 500
7	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	2 549 000
8	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	10 295 000
9	Yuridik shaxslar yer solig‘i	6 396 000
10	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	28 776 847
11	Yer osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliq (noruda)	110 000
12	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	2 668 600
13	Davlat boji	1 469 100
14	Jarimalar	1 782 040
15	Mahalliy yig‘imlar	710 640
16	Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	61 000

Jami mahalliy budjet daromadlari	**129 537 692**

Xalq deputatlari Ellikqal’a tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-18-127-13-194-K/25 -son qaroriga
2-ilova

Ellikqal’a tumani mahalliy budjetining 2026-yilda tuman mahalliy budjetidan moliyalashtiriladigan budjet tashkilotlariga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari to‘g‘risida
MA’LUMOT

ming so‘mda

T/R	Ko‘rsatkichlar	Miqdori
	Xarajatlar miqdori, Jami	**129 537 692**
1	**Tuman maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi**	**42 907 789**
	shu jumladan:	
1.1	Maktabgacha ta’lim tashkilotlarini 4-guruh xarajatlari	22 202 611
1.2	Umumta’lim maktablarining 4-guruh xarajatlari	6 377 273
1.3	“Barkamol avlod” bolalar maktabi xarajatlari	2 097 146
1.4	Maktabgacha va maktab ta’lim bo‘limi xarajatlari	7 657 559
1.5	Mening maktabim *(Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi)*	4 573 200
2	**Bolalar musiqa va san’at maktablari**	**6 217 958**
2.1	18 -sonli bolalar musiqa va san’at maktabi	3 242 907
2.2	23 -sonli bolalar musiqa va san’at maktabi	2 975 051
3	**Tuman madaniyat bo‘limi**	**2 309 784**
	shu jumladan:	
	madaniyat bo‘limi saqlash xarajatlari	2 148 895
	madaniyat bo‘limi boshqaruv apparati xarajatlari	160 889
4	**Tuman sport maktablari**	**7 152 065**
4.1	Ellikqal’a tumani 1-sonli sport maktabi	4 380 932

4.2	Ellikqal’a tumani 2-sonli sport maktabi	2 441 285
4.3	Sport maktablari xarajatlaridan maqbullashtirilgan mablag‘lar	329 848
5	Tuman Axborot-kutubxona markazi	693 043
6	**Tuman Obodonlashtirish boshqarmasi**	**15 893 912**
	shu jumladan:	
6.1	Obodonlashtirish boshqarmasi saqlash xarajatlari	11 314 483
6.2	Ichki xo‘jalik avtomobil yo‘llarni ta’mirlash xarajatlari	4 579 429
7	Tuman Fermer xo‘jaliklari markazlashgan buxgalteriyasi	662 567
8	“Suv yetkazib berish xizmati” Davlat muassasasi	4 567 830
9	Tuman Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo‘limi	2 132 056
10	Tuman Hayvonlar kasalliklari tashxisi va oziq-ovqat mahsulotlari xafsizligi davlat markazi	586 279
11	**Tuman hokimligi**	**34 464 528**
	shu jumladan:	
11.1	Tuman hokimligi saqlash xarajatlari	6 061 494
11.2	Xalq qabulxonasini saqlash xarajatlari	194 162
11.3	Ijtimoiy ko‘nikma markazlari xarajatlari	80 981
11.4	Zaxira jamg‘armasi xarajatlari	2 102 167
11.5	Hokim yordamchilari xarajatlari	4 278 918
11.6	Oila va xotin qizlar bo‘limi xarajatlari	1 814 751
11.7	Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi	19 932 055
12	Yoshlar ishlari agentligi Ellikqal’a tuman bo‘limi	4 730 395
13	Tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi	2 482 359

14	Tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi	1 399 945
15	Xalq deputatlari Ellikqal’a tumani Kengashi kotibiyati	269 012
16	“Mahalla budjeti” jamg‘armasi mablag‘lari	3 068 170

Xalq deputatlari Ellikqal’a tumani Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-18-127-13-194-K/25 -son qaroriga
3-ilova

Ellikqal’a tumani mahalliy budjetiga umumdavlat soliqlari va boshqa soliqsiz tushumlardan ajratmalar meyorlari

foiz xisobida

T/R	Budjetlar o‘rtasida taqsimlanishi	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i	shundan			Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	shundan			Yakka tartibdagi tadbirkorlardan olinadigan daromad solig‘i (3 111 300, 3 111 800, 3 111 104, daromad kodlari)	Qo‘shilgan qiymat solig‘i	shundan		
			Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar			Yirik soliq to‘lovchilar	Korxonalar aylanmasidan soliq				Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	
				QR respublika budjeti	tuman budjeti			QR respublika budjeti	tuman budjeti				QR respublika budjeti	tuman budjeti
1		100	0	35	65	100	0	35	65	100	20	0	35	65

Budjetlar o‘rtasida taqsimlanishi	Korxonalar aylanmasidan soliq		Aksiz solig‘i, spirli ichimliklar (aroq) QR respublika budjeti	Aksiz solig‘i, benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizatsiyasidan soliq	shundan			Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	
	QR respublika budjeti	tuman budjeti			Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar		Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar
						QR respublika budjeti	tuman budjeti		
	0	100	0	100	0	35	65	0	100

Budjetlar o‘rtasida taqsimlanishi	Yuridik shaxslar yer solig‘i		Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	Yer osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliq (noruda)	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	Davlat boji	Jarimalr	Yig‘imlar
	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar							

	0	100	100	100	100	100	30	26	28

Budjetlar o‘rtasida taqsimlanishi	shundan	Strategik turdagi yer osti uchastkalaridan foydalanganlik huquqini sotishdan olingan to‘lov (3 511 800)	Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	Davlat unitar korhonalarining sof foydasidan ajratma	Ko‘chmas savdo obyektlarini auksion savdolari orqali o‘tkazilishidan olingan pul mablag‘lari	Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yer uchastkalarini ijara huquqini sotishdan tushgan mablag‘lar	qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yer uchastkalariga bo‘lgan ijara huquqini elektron onlayn	Umumiy ovqatlanish, savdo, xizmat ko‘rsatish sohasida ishbilarmonlik subyektlari uchun o‘ziga tegishli	Boshqa tushumlar (3 450 603, 3 450 723, 3 450 725, 3 450 950, 3 450

	3 422 217 3 422 203 kodiga tegishli yig‘imlar								auksion savdolari orqali sotishdan tushgan tushum	bo‘lgan imoratlar hamda davlat korhonalarining hamda davlat korhonalariga foydalanishga berilgan umumiy foydalanuvdagi yer uchastkalariga to‘lovi tushumi	951, 3 511 700, 3 511 112, 3 710 303 daromad kodlaridan tashqari)
					QR respublika budjeti	tuman (shaharlar) budjeti	QR respublika budjeti	tuman (shaharlar) budjeti			
	100	25	100	0	50	50	50	50	100	100	0

Xalq deputatlari Ellikqal’a tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-18-127-13-194-K/25 -son qaroriga
4-ilova

Yuridik shaxslarning qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlarining soliq stavkalari to‘g‘risida tuman hududlari kesimida belgilangan soliq stavkalariga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar

(Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesining 2025-yil 29-dekabr kungi 88/IX-sonli qaroriga asosan 1 gektar yer uchun 36 256 ming so‘m qilib belgilangan)

ming so‘mda

№	**Hududlar nomi**	**Koeffitsent**	**2026-yil uchun yer solig‘i stavkasi (1 gektar uchun)**
1	Toshkent MFY	0,83	30 092,48
2	Oq oltin MFY	0,83	30 092,48
3	Paxtachi MFY	0,83	30 092,48
4	Sarabiy OFY	0,83	30 092,48
5	Toza Bog‘ OFY	0,83	30 092,48
6	Tuproqqal’a MFY	0,72	26 104,32
7	Yangi O‘zbekiston MFY	0,83	30 092,48
8	Cho‘pon MFY	0,83	30 092,48
9	Sharq Yulduzi OFY	0,72	26 104,32
10	Ellikqal’a OFY	0,83	30 092,48
11	Navoiy OFY	0,83	30 092,48
12	Burgutqal’a MFY	0,83	30 092,48
13	To‘rt devor MFY	0,83	30 092,48
14	Barhayot MFY	0,83	30 092,48

15	Chuqurqoq MFY	0,72	26 104,32
16	Navbahor MFY	0,83	30 092,48
17	Saxtiyon SHFY	0,83	30 092,48
18	Kichik Guldursun MFY	0,83	30 092,48
19	A.Navoiy MFY	0,83	30 092,48
20	Abay MFY	0,83	30 092,48
21	Ayozqal'a MFY	0,72	26 104,32
22	Aqchako'l OFY	0,83	30 092,48
23	Amirobod OFY	0,83	30 092,48
24	Koinot MFY	0,83	30 092,48
25	Bo'ston MFY	0,83	30 092,48
26	Guldursun OFY	0,83	30 092,48
27	Guliston OFY	0,72	26 104,32
28	Dumanqal'a MFY	0,83	30 092,48
29	Qirqqizobod OFY	0,83	30 092,48
30	Jasorat MFY	0,83	30 092,48
31	Ibn Sino MFY	0,83	30 092,48
32	Ikbol MFY	0,83	30 092,48
33	Istiqlol MFY	0,83	30 092,48
34	Qilichinoq OFY	0,83	30 092,48
35	Qizilqum OFY	0,72	26 104,32
36	Qashqo'ra MFY	0,83	30 092,48
37	Iftixor MFY	0,83	30 092,48
38	Qavatqal'a MFY	0,83	30 092,48
39	Ixlos MFY	0,83	30 092,48

40	Do‘stlik OFY	0,83	30 092,48

Xalq deputatlari Ellikqal’a tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-18-127-13-194-K/25 -son qaroriga
5-ilova

Tuman hududi kesimida jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i bo‘yicha belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar

(Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesining 2025-yil 29-dekabr kungi 88/IX-sonli qaroriga asosan 1 kv.metr uchun 282,75 so‘m qilib belgilangan)

so‘mda

№	Hududlar nomi	Koeffitsent (0,7 dan 1,3 gacha)	2026-yil uchun yer solig‘i stavkasi (1 kv.metr)
1	Toshkent MFY	0,79	223,37
2	Oq oltin MFY	0,79	223,37
3	Paxtachi MFY	0,79	223,37
4	Sarabiy OFY	0,79	223,37
5	Toza Bog‘ OFY	0,79	223,37
6	Tuproqqal’a MFY	0,72	203,58
7	Yangi O‘zbekiston MFY	0,79	223,37
8	Cho‘pon MFY	0,79	223,37
9	Sharq Yulduzi OFY	0,72	203,58
10	Ellikqal‘a OFY	0,79	223,37
11	Navoiy OFY	0,79	223,37
12	Burgutqal’a MFY	0,79	223,37
13	To‘rtdevor MFY	0,79	223,37
14	Barhayot MFY	0,79	223,37

15	Chuqurqoq MFY	0,72	203,58
16	Navbahor MFY	0,79	223,37
17	Saxtiyon SHFY	0,79	223,37
18	Kichik Guldursun MFY	0,79	223,37
19	A.Navoiy MFY	0,79	223,37
20	Abay MFY	0,79	223,37
21	Ayozqal′a MFY	0,72	203,58
22	Aqchako‘l OFY	0,79	223,37
23	Amirobod OFY	0,79	223,37
24	Koinot MFY	0,79	223,37
25	Bo‘ston MFY	0,79	223,37
26	Guldursun OFY	0,79	223,37
27	Guliston OFY	0,72	203,58
28	Dumanqal′a MFY	0,72	203,58
29	Qirqqizobod OFY	0,79	223,37
30	Jasorat MFY	0,79	223,37
31	Ibn Sino MFY	0,79	223,37
32	Iqbol MFY	0,79	223,37
33	Istiqlol MFY	0,79	223,37
34	Qilichinoq OFY	0,79	223,37
35	Qizilqum OFY	0,72	203,58
36	Qoshqo‘ra MFY	0,79	223,37
37	Iftixor MFY	0,79	223,37
38	Qavatqal’a MFY	0,79	223,37
39	Ixlos MFY	0,79	223,37

40	Do‘stlik OFY	0,79	223,37

Xalq deputatlari Ellikqal’a tumani Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-18-127-13-194-K/25 -son qaroriga
6-ilova

Yer usti va yer osti manbalaridan olinadigan suv resurslari uchun belgilangan soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar

so‘mda

T/p	Soliq to‘lovchilar va soliq solish obyektlari	1 kub. metr uchun soliq stavkasi (so‘mda)			
		Koeffitsent (0,7 dan 1,5 gacha)	yer usti suv resurslari manbalari	Koeffitsent (0,7 dan 1,5 gacha)	yer osti suv resurslari manbalari
1	Iqtisodiyotning barcha tarmoqlaridagi korxonalar (bundan 2-bandda ko‘rsatilganlar mustasno), shu jumladan sanoat korxonalari, yakka tartibdagi tadbirkorlar hamda tadbirkorlik faoliyati va (yoki) daromad olish uchun mo‘ljallangan, yashash uchun mo‘ljallanmagan ko‘chmas mulk obyektlariga ega bo‘lgan jismoniy shaxslar	1	749	1	910
2	Sanoat korxonalari uchun	1	749	1	910
3	Avtotransport vositalarini yuvish uchun ishlatilgan suv hajmi	1	16 050	1	16 050
4	Alkogolsiz ichimliklarni hamda (pivo va vinodan tashqari) alkogol mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun foydalaniladigan suv hajmi	1	40 660	1	40 660

Izoh: Ro‘yxati O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan tasdiqlanadigan yirik soliq to‘lovchilar bundan mustasno.

Xalq deputatlari Ellikqal’a tumani Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-18-127-13-194-K/25 -son qaroriga
7-ilova

Noruda qurilish materiallari uchun (sement ishlab chiqarish uchun mo‘ljallangan ohaktoshdan tashqari) belgilangan soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar

T/r	Foydali qazilmalar guruhi	Koeffitsent (1,3 gacha)	Soliq solish obyektining nomi	Soliq stavkalari, foizlarda, so‘mda
1	Noruda qurilish materiallari	1	Arralanadigan xarsangtosh, ohaktosh-chig‘anoq, ohaktosh (sement va ohak ishlab chiqarish uchun mo‘ljallangan ohaktoshdan tashqari), dolomitlar, qurilishda ishlatiladigan mayda toshlar, bazalt, granodioritlar, granosienitlar, sienitlar, porfiritlar, diabaz-porfiritlar, gabbro, slanes jinslari, karbonat xomashyosi, travertin	5, biroq 6 591 so‘m/kub.m dan kam bo‘lmagan
2		1,3	Tabiiy bezaktoshdan bloklar	5, biroq 13 910 so‘m/kub.m dan kam bo‘lmagan
3		1	Marmar	5, biroq 21 400 so‘m/kub.m dan kam bo‘lmagan
4		1	Granitlar	5, biroq 32 100 so‘m/kub.m dan kam bo‘lmagan

5		1	Gips toshi, gips va angidrid, ganch	5, biroq 17 066 so‘m/tonna dan kam bo‘lmagan
6		1,3	G‘isht-cherepitsa xomashyosi, lyosslar va lyossimon jinslar	5, biroq 6 428,9 so‘m/kub.m dan kam bo‘lmagan
7		1,3	Qurilish qumi, qumtoshlar qum-shag‘al aralashmasi	6 955 so‘m/kub.m dan kam bo‘lmagan